SAMARQAND VILOYATI NARPAY TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 5 - sentabr 314-7-98-Q/22 Narpay tumani hokimligi

Narpay tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida Yangiariq mahallasida joylashgan 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi qarshisidan o‘tuvchi avtomobil yo‘liga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Narpay tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhining 2022-yil 1-avgustdagi 46/2124-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman hududidagi “Yangiariq” MFYda joylashgan 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi qarshisidan o‘tuvchi avtomobil yo‘liga O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklar, shu

bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (J.Ismatullayev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev), mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil yetish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Mazkur qaror “Paxtakor ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Ziyadullayev va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i B.Raxmatov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b **Sh.Raxmanov**